

CHINGIZ AYTMATOVNING "JAMILA" QISSASIDA OBRAZLAR TAHLILI

O'roqboyeva Durdona

FarDU o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Maxmidjonov Shoxruxbek

FarDU o'qtuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasi tahlilga tortilgan. Maqolada asar obrazlarining o'ziga xos xarakterlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Badiy asar, xarakter, erk, sevgi, urush, davr, millat, nomus, muhabbat.*

Аннотация. *Эта статья посвящена анализу рассказа Чингиза Айтматова "Джамила". В статье раскрываются специфические характеры образов произведения.*

Ключевые слова. *Произведение искусства, характер, воля, любовь, война, эпоха, нация, честь, любовь.*

Annotation. *This article is based on the analysis of the story "Jamila" by Chinghis Aitmatov. The article reveals the specific characters of the images of the work.*

Keywords. *Fiction, character, love, war, period, nationality, non-honor.*

"Jamila" qissasi kitobxonlar qo'liga tushgandan buyon sevimli bo'lib kelmoqda. Asar yozuvchisi Chingiz Aytmatov qirg'iz xalqi adabiyotining eng yirik vakillaridan biri. Adibning har bir asari yozilishi bilanoq sevimli bo'lishi bilan bir qatorda, tez fursatda jahon yuzini ko'ra boshlagan. Buning eng asosiy sababi asarlarida umuminsoniy g'oyalar tarannum etganida desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chingiz Aytmatovning asarlari jahonning 170 dan ziyod tillariga tarjima qilingan. Yigirma milliondan ortiq nusxada chop etilgan va hamon adibning kitoblari jadallik bilan kitobxonlar qo'liga yetkazib berilmoqda. Adibga eng katta shuhrat keltirgan asarlari bu "Oq kema", "Qiyomat", "Asrga tatigulik kun" hamda "Jamila" kabi asarlaridir. Aynan "Oq kema" hamda "Jamila" asarlarida Chingiz Aytmatov qirg'iz xalqining qiyinchilik yillari, odamlarning ko'rgan mashaqqatlari, soddaliklari, ba'zi xudbinliklari, hikoya qilgan. Tahlilga tortilgan "Jamila" qissasi ham aynan shunday asarlardan biridir.

Ushbu asar adabiyotshunoslar tomonidan "eng go'zal sevgi qissasi" deya ta'riflangan. Ammo yana ba'zi adabiyotshunoslar "Jamila" qissasi inson haqida



emas, balki inson erki haqida hikoya qiladi deyishadi. Umuman olganda ushbu fikrlar ham asosli. Chunki asarda hikoya qilingan yillar urush yillari. Odamlar o'z erki tugul halovatini ham yo'qotib qo'ygan davr hisoblanadi.

Asar yaratilgandan buyon juda ko'plab muhokamalarga, mulohazalarga, raqobatlariga sabab bo'lib kelmoqda. Eng e'tiborga loyiq jihati bu Jamila to'g'ri qaror qilganmi yoki yo'q degan savol. Buning uchun avvalo asar boshiga e'tibor qaratish joioz. Jamila Sodiq bilan sevishib, ahd-u paymon qilib yurganmidi? Birga bo'lamiz deb va'dalashganmidi? Jamila ro'molchani burchagiga Sodiq deb kashta tikkanmidi? Ko'rishmay yurgan paytlari sog'inib yig'laganmidi? Urushga ketgandan keyin o'zini qo'yarga joy topolmay qolganmidi?..

Sodiqchi? Yarim kechasi Jamilaga gul ko'tarib borganmidi? Shirin so'zlar bilan erkalaganmidi? Urushga ketayorganda "Jamila", menga sendan boshqasi kerak emas. Sensiz yasholmayman. Urushdan qaytsam to'y qilamiz, birga bo'lamiz" deganmidi? Urushga ketgandan keyin Jamilaga yashirin xatlar yozganmidi?..

Bunday savollar juda ko'p. Sodiq nima uchun Jamilani olib qochdi? Jamilani sevganidanmi, yoki o'zini sevganidanmi? O'z or nomusini saqlash uchun olib qochdi, albatta. Ammo bu ish qanchalik to'g'ri? G'alaba ta'mini sezgan qalb mag'lubiyat alamini ham sezishi kerak emasmi? Ammo Sodiq yengilishni tan olish o'rniga oson yo'lni tanladi: Jamilani olib qochdi. Aynan shu voqealarni o'qib, ko'nglining yo'rig'i bilan yuruvchi har bir kitobxon Jamilaning qarorini to'g'ri deb hisoblaydi. Qizning qarori ham to'g'ri, albatta. Chunki u o'z erkini, o'z hislarini, o'z qarorini hamma narsadan ustun qo'ydi. Biroq bir savol ba'zi kitobxonlarni o'ylantirib qo'ygan bo'lishi mumkin. Nega Jamilning hayotida Donyor paydo bo'lgunga qadar qochib ketmadi? Yoki u qulay vaziyatni kutdimi? Yoki yolg'iz qochishga qo'rqdimi? Yoki kimnidir sevib qolishini kutdimi? Yoki oila a'zolarining sha'nini o'ylab qochib ketolmadimi? Agar chindan ham oila a'zolarining sha'nini o'ylagan bo'lsa nega Donyor bilan qochib ketdi? Odamlar baribir gapiradi-ku. Demak, Jamila yolg'iz qochishga qo'rqqan degan xulosaga kelsak bo'laveradi va u birga qochish uchun chinakam muhabbatini kutdi. Aslini olganda chindan ham shunaqa. Inson safarga o'tlanish uchun yonida sevgan insonni bo'lishini xohlaydi. Jamila ham "qochish" degan safari uchun o'ziga qaysidir ma'noda "sherik" izladi. Va o'sha sherik kamgap, urushdan yarador bo'lib qaytgan cho'loq, hech vaqosi yo'q Donyor edi. Sodiq bilan imkoniyatlarini solishtirganda u chindan ham pastroq turishi mumkin. Ammo insoniylik jihatidan qaraydigan bo'lsak u Sodiqdan ancha yuqori. Jamilaga xushomad qilmadi, shirin gap gapirmadi, aldab-avramadi, quruq va'dalar bermadi, olib qochmadi. Shunchaki Jamila uni sevib qoldi. Balki buni sevgi deb bo'lmas, balki



shunchaki o'rganib qolish deyish mumkindir. Ammo aynan shu o'rganib qolishdan keyin ulkan sevgi dunyoga keladi. Aynan shu tuyg'uni Jamila anglab yetdi.

Jamilaning qarorini har tomonlama ham to'g'ri deb hisoblay olmaymiz. Taqdirga tan berib qaynonasi bilan bir uyda yashayotgan, erkatoy kelin edi. Unga nisbatan hech qanday yomonlik yo'q edi. Aksincha, qaynog'asining ham sevimli yangasi edi. Faqat yaxshilik ko'rib yashayotgan bo'lsa-da, uning qalbidagi olov qochishga undardi. U Sodiqni sevmagan. Shu o'rinda Sodiq ham. Jamila "taqdirimga bitilgan yor shu ekan" deb yashayversa ham bo'lardi. Balki, Donyor bilan o'rtasida paydo bo'lgan muhabbat Sodiq bilan ham paydo bo'lishi mumkin edi. Bu yerda uning qochib ketishiga eng katta turtki bergan narsa bu umuminsoniy tuyg'ulardan biri bo'lgan sof muhabbat yuragining tub-tubida tomir otgan edi. Donyor uning uyg'onishiga sabab bo'ldi.

Balki chindan ham Jamilada ham ayb bordir. Ammo bu yerda eng katta ayb Sodiqda. "Erkak kishi oshqozoni bilan, ayol kishi qulog'i bilan sevadi" degan gap bor. Shirin taom orqali erkak kishining ko'ngliga yo'l topilsa shirin so'zlar orqali ayol kishining ko'ngliga yo'l topiladi. Sodiq Jamilani shunchaki olib qochdi. Na sevgi izhor qildi, na shirin so'z aytdi. Urushga ketayotganda ham hech bo'lmaganda ko'ngil uchun shirin va'dalar berib ketsa bo'lar edi. Urushda yurgan vaqtda esa Jamilaga xat-xabar ham yubormadi. Onasiga yozgan xatining oxirida shunchaki Jamilani so'rab qo'yardi xolos.

Asar muhabbat qissasi, inson erkini kuylovchi asar va "Jamila" deb nomlangan. Ammo asarni o'qir ekanmiz, beixtiyor, asar bosh qahramoni sifatida Seyidni tan olamiz. Chunki deyarli har bir voqeada Seyid qatnashgan, hamma ishlar uning atrofida bo'ladi. Oddiy qishloq bolasi, dala mehnatlari bilan yashayotgan yigit, onasiga tirkak farzand, akasiga yondosh uka, yangasiga yelkadosh qayniog'a... Seyid Jamila va Donyorning o'rtasida muhabbat paydo bo'lishni boshlagandan to ular ketib qolgunga qadar har bir voqeani o'z ko'zlari bilan kuzatadi, o'z quloqlari bilan eshitadi. Ayni shu o'rinda bir savol: nega onasiga bu haqda aytmadi? Balki aytganda Jamila ketolmay qolardi. Nega Seyid hammasiga jim qo'yib berdi?

Seyid yangasining ortidan yomon so'z aytmadi. Shunchaki u muhabbati chorlagan yo'ldan ketdi deb hisobladi. Butun qishloq yomon desa ham, u yangasini yaxshi deb o'ylayverdi. Balki adib Seyid obrazida o'zini ko'rgandir. Balki o'zini Seyid obraziga kiritgandir. Balki shu orqali o'zi ham Jamila to'g'ri qaror qilganini izohlayotgandir. Ammo bir narsani unutmaslik kerak, adib asarni yozadi xolos. Uni tahlil qilish, sevinish, o'qiganda yig'lash, kulish, ta'sirlanish, og'riqni his qilish, baxtdan sevinish, kitob bilan birga uxlash, birga uyg'onish kitobxonning ixtiyorida. Kimdir



kitob haqida, asar haqida qandaydir fikr bildirganda o'z dunyoqarashi bilan fikr yuritadi. Ammo haqiqiy kitobxon o'zgalarning fikri bilan emas, o'z fikri bilan ish ko'radi.

Xulosa qilishimiz mumkin-ki, ushbu asarda ham Jamilani yoqlash, yoqlamaslik har bir kitobxonning o'ziga bog'liq. Kimdir uni xato qildi deb hisoblasa, yana kimdir uning eng to'g'ri qarori shu deb hisoblashi mumkin. Kitobni o'qib chiqmasdan turib, kimningdir fikri bilan qaror qabul qilish esa, albatta, noto'g'ri ish. Shaxsan men oddiy kitobxon sifatida Jamilani aybdor deya olmayman. Shu bilan birga aybsiz deyishga ham haqqim yo'q. "Qars" ikki qo'ldan chiqadi deganlaridek, Sodiqda ham, Jamilada ham birdek ayb bor deb hisoblayman. Ammo qaysi bir tomonni tanlash so'rog'i qo'yilganda, qisman Jamilada ayb kamroq deb bilaman. Chunki nima bo'lganda ham u ojiza. Oilasining or-nomusini har nedan ustun qo'yib, sevmagan insonning uyida yashab yurishga majbur bo'lgan qiz. Oxirida chiday olmadi. Uning so'nggi qabul qilgan qarori balki unga baxt keltirar...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Чингиз Айтматов, "Жамила". "Янги аср авлоди", 2022. Асил Рашидов таржимаси.
2. Seydanov X. Ch. Aytmatov va o'zbek adabiyoti. Toshkent.
3. Solijonov Y, Abdukarimov T, Ch. Aytmatov – Inson va tabiat kuychisi.
4. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
5. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.
6. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 520-524.
7. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. Modern Science and Research, 2(6), 1231-1235.
8. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. Интернаука, (15-3), 75-76.



9. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
11. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM"ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. Nazariy Va Amaliy Fan, (5), 590-592.
12. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.
13. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
14. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
15. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
16. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
17. Oripova,, G. , & Mirzajonova,, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
18. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.

